

YOSH SPORTCHILARDA ESTETIK TARBIYANI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Burliev Umid Kadirbayevich

“Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy ilmiy fanlar”

Kafedrasi o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ушбу мақолада ёшлар маданиятини турли томонлари ўзбек миллий менталитет хусусиятлари ҳамда миллий ва умуминсоний тамойиллар асосида илмий таҳлил этилган. Шунинг бугунги ёшлар субмаданияти илдизлари, маънавий маданият асоси бўлган билим, ахлоқий фазилатлари ҳақида сўз юритилган.

Kalit so‘zlar: Go‘zallik, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, estetik bilim, milliy qadriyatlar, estetik go‘zallik.

АННОТАЦИЯ

В данной статье научно анализируются различные аспекты молодежной культуры, исходя из особенностей узбекского национального менталитета и национально-общечеловеческих начал. Поэтому обсуждаются корни сегодняшней молодежной субкультуры, знания и нравственные качества, составляющие основу духовной культуры.

Ключевые слова: Красота, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, эстетические знания, национальные ценности, эстетическая красота.

ABSTRACT

In this article, various aspects of youth culture are scientifically analyzed based on the features of the Uzbek national mentality and national and universal principles. Therefore, the roots of today's youth subculture, the knowledge and moral qualities that are the basis of spiritual culture are discussed.

Key words: Beauty, moral education, aesthetic education, aesthetic knowledge, national values, aesthetic beauty.

Bugungi kunda sport estetikasining tarbiyaviy ahamiyati tobora miqyoslashib bormoqda. Ayniqsa, so‘nggi yillarda O‘zbekistonda sport misli ko‘rilmagan darajada ommaviylashdi. Hozirgi paytda sport musobaqalari shunchaki g‘oliblik uchun emas, balki go‘zallik va ulug‘vorlik kabi estetik xususiyatlarining namoyon bo‘lish sharti

sifatida turli yoshdagi tomoshabinlarni o‘ziga jalg etmoqda, ular bo‘sh vaqtining nafosatlashuvini ta’minlamoqda. Estetik tarbiya gohida sportchilarni axloqiy tarbiya vositasi sifatida ko‘riladi, lekin bu omillar sportda go‘zallik yoki harakatlarni amalgalashirishda estetik harakatlar uyg‘unlik sifatida ta’riflash o‘rinlidir.

Birinchi o‘rinda estetik tarbiya vositasi sifatida sport tadbirlarini tashkil etish,

Ikkinci o‘rinda yosh sportchilarning tarbiyaviy psixologik jarayonlari,

Uchinchi o‘rinda hakamlik muammolari,

Butun dunyo sport musobaqalarini tashkil etishda tashkilotchilar tadbirning dekorativ go‘zallik tamoniga e’tibor beriladi bu albatta rivojlanishning o‘ziga xos uyg‘unligini yoki milliy umum qadriyatlardan kelib chiqilib yondashiladi.

Sport musobaqalari tashkil etilar ekan undagi go‘zallik sportchilarning individual mahorati hisobiga go‘zallashadi lekin uning axloqiy yoki psixologik holati mukammal bo‘lmasa bu tomashabinlarga ajib go‘zallik hiisini idrok etishda narozilik holatini keltirib chiqaradi. Bu o‘rinda endi axloqiy tarbiya ham muhim o‘ringa chiqadi.

Sport estetik tarbiyadagi miqyosli va muhim roli shundaki, u odamlarning histuyg‘ulariga, hissiyotlari esa aqliga ta’sir o‘tkazadi, bunday ta’sir oqibatida idrok etuvchida ruhiy evriliishlar vujudga keladi. San’at asarini muntazam idrok etish oilayu ishxona muammolari, turmush chigalliklari, etishmovchiliklar v.b. ostida ko‘milib yetgan qalbdagi toza tuyg‘ularning ochilishiga olib keladi. Inson bu dunyoda mo‘jiza borligiga ishonib yashay boshlaydi. Ya’ni, sport ruhni yangilash qudratiga ega. Ayni paytda bu ruh go‘zal va ulug‘vor bo‘lgani uchun nimanidir yoqlaydi, xunuk va tubanligi uchun nimanidir inkor etadi. Ana shu nuqtada sportning insonni g‘oyaviy jihatda tarbiyalashi ro‘y beradi: sport o‘zini estetik zavq bilan idrok etayotgan individdan g‘oya va ideal xizmati bel bog‘lagan shaxsni yaratadi.

Sportchida estetik tarbiyaning yana bir vositasi sifatida oila va undagi muhitni ko‘rsatish mumkin. Zero oila faqat axloqiylik emas, balki estetik maskan sifatida ham ahamiyatga ega. Oilada ota-onaning estetik didi, nafosatni his qilish darajasi farzandda atrof-muhitga, voqelikka estetik munosabatni shakllantiradi, uning didini yuksaltiradi.

Bularning hammasi yani jamiyat va oilada estetik tarbiyani yo‘lga qo‘ymagan jamiyat hech qachon biron bir yutuqqa erishishi gumonligini ko‘rsatadi. Aslida ham shunday. Masalan, Yaponiya, ko‘rib o‘tganimizdek, eng estetik mamlakat, yaponlar jahondagi yuksak madaniyat egasi. Zamonaviy iqtisoddagi, ilm-fandagi, texnikadagi yaponlar tutgan mavqening balandligi ulardagi estetik daraja bilan paralell chiziqlardek nisbatga ega. Faqat bu ikki chiziq davomiyligini ularning biri – estetika chizig‘i boshqarib boradi. Ya’ni Yapon millatida estetik tarbiya, Shiller bashorat qilganidek, ham jismoniy, ham aqliy, ham axloqiy tarbiya uyg‘unligidan iboratdir.

Jamiyatimizdagи hozirgi yangilanish jarayonida axloqshunoslik va estetikaning o‘zo‘rnii bor. Uning oldida yangi demokratik va huquqiy davlat barpo etishga kirishgan

mamlakatimiz fuqarolarining, ayniqsa, yoshlarning axloqiy darajasiga mas’ullik va har tomonlama kamol topgan zamon kishisi tarbiyasini nazariy asoslashdek ulkan vazifalar turibdi. Ularni faqat qadimiyligi va har doim zamonaviy bo‘lib kelgan axloqqa yangicha yondashuvlar asosidagina amalga oshirsa bo‘ladi. Sportchilar estetik tarbiya bilan bir vaqtida axloqiy tarbiyani uyg‘unlashtirish uning psixologik emotsiyonal holatiga ham etibor qaratish muhim omil sifatida uyg‘unlashtirishni maqsadga muvofiq deb uylaymiz.

O‘zbekiston suveren demokratik davlat bo‘lib, halq davlat hokimiyatining asosiy manbai hisoblanadi. Bu haqda Konstitutsianing 13-moddasida shunday deyilgan: «O‘zbekiston Respublikasi demokratik umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi.

Demokratik huquq va erkinliklar Konstitutsiya va qonunlar bilan himoya qilinadi»¹¹¹. Demak, demokratik davlatda halq davlat hokimiyatining asosiy manbai bo‘lib, umuminsoniy tamoyillarni amalga oshirish orqali inson va jamiyatning farovonligini, barcha halqning turmush darajasini oshirib borishga erishadi.

Katta ijtimoiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan mintaqaviy qadriyatlardan yana bari – **jamoatchilik fikridir**. Jamoatchilik fikri odamlar o‘rtasidagi bir-biriga yaqinlik, o‘zaro hurmatning ifodasi bo‘lib, keng foydalanish mumkin bo‘lgan qadriyatdir, bu qadimiyligi o‘ziga hos qadriyat hisoblanib eng avvalo jamiyatda rivojlanishi yuqoriroqdir.

Demak, milliy qadriyatlar umuminsoniy demokratik tamoyillar bilan uyg‘unlashtirilsa, shundagina jamiyat taraqqiyotining rivojlanishida uning o‘rnini alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Ammo sho‘rolar davrida qadriyatlar bir tomonlama yoritilar, bu borada ko‘p tadqiqotlar olib borilgan edi. Lekin milliy qadriyatlarning mavjudligi e’tibordan chetda qolar edi. Bunday “tadqiqot”lardan maqsad har bir millatning o‘z muayyan tarixiy tajribasi asosida O‘z qadriyatlari tizimi shakllanganiga qadar kishilarning e’tiborini tortmaslik, demokratiyaning umumjahon va umumbashariy tamoyillari esa sinfiy asosda talqin etilar edi. Tanlab olingan va umumjahon tamoyillar va qadriyatlar ichida eng nufuzli joyni “**ulug‘ millat**”ning qadriyatlari egallab turardi.

“Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi”da ta’limning ijtimoiylashuvi, ta’lim subyektining estetik dunyoqarashi, yuksak ma’naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlashini shakllantirish ayni shu maqsadlarni ko‘zda tutadi. Zero estetik bilim va didning e’tiqod va xatti-harakat normalariga aylanishi natijasida har bir insonda, , uning hayotda va dunyoni “go‘zallik qonunlari bo‘yicha” o‘zgartirishda uchraydigan xunuklik va

¹¹¹ Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. -Т.: Ўзбекистон, 2003. 11-б.

tubanlikka qarshi faol kurashuvchanlik namoyon bo‘ladi. uning hayotda va dunyoni “go‘zallik qonunlari bo‘yicha” o‘zgartirishda uchraydigan xunuklik va tubanlikka qarshi faol kurashuvchanlik namoyon bo‘ladi.

Ma’lumki yosh sportchilarning estetik didi kundalik amaliyatda, jamoat va mehnat amaliyatida, xilma-xil ijtimoiy-tarixiy omillar ta’sirida shakllanib, rivojlanib boradi. Estetik faoliyatning ham subyekti, ham obyekti hisoblangan shaxsning estetik ehtiyoji va didi u mansub millatning tarixiy shakllangan an’ana va mezonlari, shuningdek, o‘ziga xos tabiiy-hududiy, geografik va ijtimoiy hayot sharoitlariga bog‘liq bo‘ladi. Bugun globallashuv jarayonida esa internet va televideniyaning yoshlar ma’naviyati, didiga ta’sir kuchi ortib bormoqda. Mana shu o‘zgarib borayotgan jamiyatda kompyuter, internet, uyali aloqa vositalari va boshqa zamonaviy texnika-texnologiyalarni rivojlanib, takomillashib borishi natijasida, yoshlarimiz zamonaviy texnologiyalarni boshqarish, ulardan samarali foydalanish sirlarini o‘rganib o‘z bilim salohiyatlarini oshirib bormoqdalar.

Mamlakatimizning 63 foizini tashkil qiladigan yoshlarni o‘z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o‘tgan hayotiy-milliy qadriyatlargacha, sog‘lom dunyoqarashga, axloqiy va estetik madaniyati, boy ma’naviyatga ega, har qanday mafkuraviy taz’yiq va ma’naviy tahdidlarga zarba berishga tayyor etib tarbiyalash vazifasi dolzarb bo‘lib hisoblanadi.

Birinchidan, yosh sportchilar tarbiyasida milliy ma’naviy-axloqiy kamolotning tadrijiy rivojini ta’minalash, uning g‘oyaviy asoslarini takomillashtirish va amaliy jihatdan faollashtirish. Bu borada, eng avvalo, Sharq va G‘arb faylasuflarining ijtimoiy axloqqa oid ma’naviy merosi va g‘oyalarini yangicha talqin qilish, rivojlanayotgan jamiyatlarda, jumladan, O‘zbekistonda jamiyat ma’naviy muhitini barqaror rivojlantirib borish va uning shaxs kamolotidagi ta’sirini oshirish konsepsiylarini uyg‘unlikda anglash.

Ikkinchidan, hozirgi O‘zbekiston aholining yosh xususiyatiga ko‘ra, rivojlanib borayotgan mamlakatlar tarkibiga kiradi. Chunki 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar umumiyligi aholining taxminan 40 foizini, 30 yoshgacha bo‘lganlar esa 64 foizini tashkil etadi. Yurtimizda yashayotgan yoshlar kamoloti masalasiga nafaqat ota-onalar, balki mamlakat fuqarolari, jamiyatimizning burchi sifatida qarashi uning nihoyatda jiddiy ekanligidan dalolat beradi. Zero, yoshlar bugungi niyatlarimizni ertaga ro‘yobga chiqaradigan, mamlakat taraqqiyotini ta’minalaydigan, har bir sohada o‘z iqtidori va iste’dodini to‘la-to‘kis namoyon eta oladigan avlod sifatida shakllanishi zarur. Yoshlarda fahm-farosatni takomillashtirib borish jamiyat ijtimoiy taraqqiyoti va unda shaxs faolligi muammosini ijobjiy, to‘liq hal etishda muhim o‘ringa ega.

Uchinchidan, jamiyat ijtimoiy qiyofasining shakllanish jarayoni ma’naviy-axloqiy muhit ta’siri doirasidagi axloqiy ong, axloqiy xatti-harakat, ijtimoiy faoliyat,

ijtimoiy-siyosiy muloqot va axloqiy munosabat hamda o‘z-o‘zini anglash bilan amalgam shiriladi, zero, vatanimiz kelajagi, xalqimiz oldida turgan ulkan maqsadlarga erishish, avvalo, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk shaxslarga, ularning axloqiy kamolotiga bog‘liqdir. Insoniyat taraqqiyotining har bir davrida ma’naviy barkamollik masalasiga alohida e’tibor qaratilgan, chunki aynan ma’naviy-axloqiy kamolot insonning ruhiy poklanishi, axloqiy ong va axloqiy hissiyotlarga ega bo‘lishi, halol va pok yashashi, mustahkam e’tiqodga ega bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

To‘rtinchidan, Shaxsning axloqiy faolligini ta’minalash ijtimoiy ong shakllari va ijtimoiy taraqqiyot uyg‘unligiga xizmat qiluvchi fuqarolik institutlari faoliyatini kuchaytiradi, jamiyat ma’naviy-axloqiy muhitining demokratik rivojlanish asoslarini ishlab chiqish, nodavlat va notijorat tashkilotlari va jamoat birlashmalari ta’sir doirasini kengaytirish taqozo etiladi. Fuqarolik institutlarining o‘zaro ma’naviy hamkorligi kelajagimiz poydevori bo‘lmish yoshlar dunyoqarashi va ijtimoiy faoliyatiga ijobiy ta’sir qilib qolmay, ular qalbi va ongiga boy ma’naviy merosni singdirishga, mamlakatda barkamol avlodni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston.
2. “Talim to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997 yil, 29 avgust // O‘zbekistonning yangi qonunlari. -Toshkent: Adolat , 1998.
3. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. 1997 yil, 29 avgust // O‘zbekistonning yangi qonunlari. - Toshkent: Adolat, 1998.
4. Abdulla Sher. Axloqshunoslik. –Toshkent: O‘zbekiston faylasuflar milliy jamiyati nashriyoti 2010.
5. 1.3.Abdulla Sher, Bahodir Husanov.Estetika. T. O‘zbekiston Faylasuflari Milliy jamiyati 2010.
6. Abu Nasr Forobi. Fozil odamlar shahri.-Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi rashriyoti.
7. Abu Nasr Forobi. Fazilat, baxt-saodat va kamolat haqida .-Toshkent: Yozuvchi, 2001.
8. Маманов, Ж. А., & Розиков, Ж. М. (2021). Миллий менталитетнинг ёшлар маданиятига таъсири. Academic research in educational sciences, 2(Special Issue 1), 170-178.
9. Маманов, Ж. А. (2018). Ёшлар маънавий маданиятига таҳдид ёки мессионерликнинг салбий оқибатлари. ЎзМУ хабарномаси, 169.

10. Маманов, Ж. А. (2018). МАЪНВАЙ ТАРБИЯ ТАКОМИЛИДА СПОРТ ВА АХЛОКИЙ МАДАНИЯТНИ УЙФУНЛАШТИРИШ МАСАЛАСИ. *Fan-Sportga*, (3), 74-78.
11. Маманов, Ж. А., & Хушвақтов, З. Р. (2022). МИЛЛИЙ МЕНТАЛИТЕТ (МЕХАНИЗМИ) ВОСИТАСИДА ЁШЛАР МАЪНВАЙ МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(6), 9-13.
12. Маманов, Ж. А. (2020). Young people are increasing a spiritual culture place of national mentality. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 3203.
13. Жумаев, У. Х. (2022). ТУРКИСТОНДА МОЛИЯ-КРЕДИТ МУАССАСАЛАРИНИНГ ПАХТАЧИЛИК СОҲАСИДАГИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(6), 4-8.
14. Жумаев, М. Х. (2022). БУХОРО АМИРЛИГИДА ҲУНАРМАНДЧИЛИК ВА ТЎҚИМАЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНИШ ТАРИХИДАН. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(6), 14-18.
15. Жаҳонгиров Б.Б. Ўзбекистоннинг хорижий давлатлар билан илмий – техникавий ҳамкорлиги (илмий-тадқиқот институтлари мисолида). *Oriental reneissance: innovative, education, natural and social sciences scientific journal*. Volume 2, issue 5/2, may 2022. -Б.824.
16. Жаҳонгиров Б.Б. Ўзбекистоннинг Япония билан илми-техникавий алоқалари. *Academic research in educational science volume 2 | special issue 1 | 2021 /01; -Б.315.*
17. Жаҳонгиров Б.Б. Ўзбекистон фанлар академиясининг хорижий мамлакатлар билан илмий - техникавий алоқалари. ҚарДУ хабарлари Илмий-назарий, услубий журнал. Махсус сон (Ижтимоий фанлар).-Қарши. 2020.-Б.256.
18. Жаҳонгиров Б.Б. Международные связи Узбекистана в области науки. *International scientific and practical conference.The time of scientific progress*, Warsaw, Polsha, 05.11.2022. Session1, Part 3.-C.15-19.
19. Жаҳонгиров Б.Б. Ўзбекистон ва Туркия муносабатлари. *Science and innovation international scientific journal volume 1 issue 8 uif-2022: 8.2 | issn: 2181-3337.-Б. 211-215*
20. Маманов, Ж., & Турғунов, Т. (2022). МИЛЛИЙ МЕНТАЛИТЕТ АСОСИДА ЁШЛАР МАДАНИЯТИНИ ЮКСАЛТИРИШНИНГ МИЛЛИЙ ВА УМУМИНСОНИЙ ТАМОЙИЛЛАРИ. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 520-528.